

PARVON JANGI

Farmonov Sardorbek Xabibullo o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 101-guruh talabasi safarovxabibulla502@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola 1221-yili sodir bo'lgan Parvon jangining harbiy va siyosiy ahamiyatini yoritadi. Unda mo'g'ullar va xorazmshohlar o'rtasida sodir bo'lgan jang hamda Jaloliddin Manguberdi qo'mondonligidagi qo'shinning jang davomidagi qo'llagan harbiy strategiyalari, jangning natijalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Parvon jangi, Jaloliddin Manguberdi, Shiki Xutuxu, Mo'g'ullar bosqini, Xorazmshohlar qo'shini, Harbiy strategiya.*

Аннотация: *Эта научная статья проливает свет на военное и политическое значение битвы при Парване, произошедшей в 1221 году. В нем рассказывается о битве между монголами и хорезмшахами, а также о военных стратегиях, которые армия под командованием Джалалуддина Мангуберди использовала на протяжении всей битвы, а также о результатах битвы.*

Ключевые слова: *Парванская битва, Джалалуддин Мангуберди, Шики Хутухту, монгольское нашествие, армия Хорезмшахов, военная стратегия.*

Annotation: *this scientific article covers the military and political significance of the Battle of Parwan, which took place in 1221. It discusses the battle between the Mongols and the khwarezmshahs and the military strategies used by the Army under the command of Jaloliddin Manguberdi in the continuation of the battle, the results of the battle.*

Keywords: *Battle of Parwan, Jaloliddin Manguberdi, Shiki Khutukhu, Mongol invasion, Khwarezmshakh Army, Military Strategy.*

Parvon jangi -1221-yili sodir bo'lgan Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan janglaridan biri. Bu jang Jaloliddin Manguberdi boshchiligidagi Xorazm qoshinlari va mo'g'ullar o'rtasida bo'lib o'tgan eng yirik janglardan biri.

Jaloliddin Manguberdi o'z Vatanida xiyonatga uchrab, Xorazmni tashlab G'azna tomon yo'l oladi va u yerda mog'ullarga qarshi kurashishga astoydil bel bog'lab qo'shin to'playdi.

Jaloliddin Manguberdi qalbida mo'g'ullarga qarshi shunday bir nafrat uchquni paydo bo'lgan ediki, o'z Vatanini egallagan, askarlarini halok qilgan, xalqini talagan, yoshini yosh, keksasini keksa demay o'ldirgan bu mo'g'ul qo'shinlarini tezroq tor-mor etishni istardi.

Jaloliddin Manguberdi G'aznaga yetib kelgan vaqtida shaharga sarkarda A'zam Malik noiblik qilardi. O'sha vaqtda Jaloliddin Manguberdi va uning eng yaqin safdoshi sarkarda Amin Malik qo'l ostida 30 ming askar bo'lgan. Juvayniyning yozishicha, G'aznada unga yana 60-70 ming lashkar kelib qo'shilgan³⁸.

Bu otliqlar edi. Jaloliddin Manguberdi qo'l ostida 60 ming lashkar bor edi, ular bu miqdorga yetardi. Jaloliddin Manguberdi qo'l ostida 40 ming kishidan iborat bo'lgan jangovar kuchga ega edi.

³⁸ Shihobiddin Muhammad an -Nasaviy- " Sulton Jaloliddin Manguberdi" - " O'zbekiston " - Toshkent 2006-yil 105-b

Parvon janggi arafasida Jaloliddin Manguberdi (G'azna yaqinidagi Parvon dashtida) mo'g'ullarning Chingizxon tomonidan yuborilgan Takajuq Mo'lg'or no'yon boshchiligidagi Valiyon qal'asini qo'shinlari ustidan yirik g'alabaga erishgan³⁹.

Valiyon qal'asidagi mag'lubiyatdan so'ng Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shin bilan yuboradi. Mo'g'ullar Jaloliddin Manguberдини mudofaaga o'tib himoyalanađi deb o'ylagandi.

Bir paytlar Xorazm sarhadlariga bostirib kirgan mo'g'ullarning qo'shiniga qarshi asosiy kuchlarni birlashtirib ochiq maydonda jang qilish taklifini berganda otasi tomonidan rad etilgan edi.

Holbuki, unga endi hech kim to'sqinlik qila olmas edi. Jaloliddin Manguberdi ochiq va keng maydonda mo'g'ullarni qarshi olish rejasini tuzdi. Parvon dashti- G'orband va Panjisher daryolari quyilishigacha davom etadigan hudud.

Jaloliddin Manguberdi jang boshlanishidan oldin Parvon dashtini sinchkovlik bilan ko'zdan kechirgan, past balandliklarini qo'shinni joylashtiradigan strategik qulay joylarni belgilab olgan.

Jaloliddin Manguberdi qo'shinining barong'origa Amin Malikni, juvong'origa Sayfuddin Ag'roqni boshliq qilib o'zi qo'shinning markazida turgan⁴⁰.

Jaloliddin Manguberding shundoq ortida xos askarlari yarim oy shaklida saf tuzib, ot qo'yib borgan. Jaloliddin Manguberdi suvoriylarning yelkasida sadoq, qo'llarida kamon o'qlari bilan, dashtning bir qismi bosib o'tilgach, kutilmaganda otlaridan tushib mo'g'ul qo'shinlarini kamondan o'qqa tuta boshlagan.

Amin Malik va Sayfuddin Ag'roq qo'mondonlik qilayotgan qanotlar ham mo'g'ul qo'shinlariga kamon o'qi yog'dirishi natijasida mo'g'ul otliqlarining safini to'zgitib yuboradi⁴¹. Bu jangda mo'g'ullar kutilmagan hodisaga duch keladi. Odatda ko'pchilik sarkardalar qo'shini jangga kirar ekan o'zi jang qilmay qarorgohda jangni kuzatadilar.

Jaloliddin Manguberding shaxsan o'zi qo'shinni jangga olib kirishi ham mo'g'ullarni sarosimaga solib qo'ydi. Jaloliddin Manguberdi qo'shinining shijoati shu qadar ediki, imkoni borlar faqat oldinga intilgan. Jaloliddin Manguberding o'zi markazda shiddat bilan harakat qilib mo'g'ul qo'shinini ikkiga bo'lib tashlaydi. Qo'shinni bo'laklarga bo'lib yolg'ondan chekinish va qayta hujumga o'tib dushmani tor-mor qilish mo'g'ullarga xos bo'lsada ushbu jangda Jaloliddin Manguberdi bu usulni o'zlariga qarshi qo'llagan.

Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul qo'shinini ikki qisimga bo'lib tashlagach, mo'g'ul sarkardalari o'z qo'shinlarini qanotlarga taqsimlashni boshlaganida Jaloliddin Manguberdi qo'shini sarkardalari Amin Malik, Sayfuddin Ag'roq va Hasan Qarluqlar o'z qo'shinlari bilan ularni ta'qib etib nafas rostdashga qo'yishmaydi. Jangni boy berayotganini sezgan mo'g'ullar saralangan jangchilarni markazga Jaloliddin Manguberdi ustiga tashlashadi, Jaloliddin Manguberdi sarkardalari buni darrov payqab uni puxta qo'riqlashadi.

Bu jangda Sulton Jaloliddin Manguberdi boshchiligidagi eng sara va mard Xorazm qo'shinlariga teng keladigan qo'shinning o'zi yo'q edi.

³⁹ Alouddin Atomalik Juvayniy "Tarixiy jahongusha" - "Mumtoz so'z" - Toshkent 2015-370-b

⁴⁰ Alouddin Atomalik Juvayniy "Tarixiy jahongusho" - "Mumtoz so'z" - Toshkent 2015-371 - b

⁴¹ Baxtiyor Abdug'afur "Sulton Jaloliddin Manguberdi - "Yangi asr avlodi" - Toshkent 2024-302 - b

Parvon jangining ikkinchi kuni mo'g'ullar yana hiyla ishlatib ko'rishdi. Qo'shinining markaziga mo'g'ul qo'g'irchoq askarlarni joylashtirib qo'ydi. Buni josuslari orqali bilib olgan Jaloliddin Manguberdi o'z qo'shinini ogohlantiradi⁴². Bu jangda mo'g'ullar Jaloliddin Manguberdi qo'shiniga qarshi tura olishmadi va mag'lubiyatga uchrab qocha boshladi. Bu jang butun musulmon dunyosi uchun ulkan bir g'alabani keltirdi.

Aynan o'sha davirda yashagan xalqlar orasida "mo'g'ullar yengilmaydi, ular ilohiy kuchga ega" degan so'zlarni mutlaqo noto'g'ri ekanligini Jaloliddin Manguberdi Parvon jangidagi g'alabasi bilan isbotladi va yengilmas mo'g'ul qo'shiniga mag'lubiyat alamini tortirdi. Bu mag'lubiyatdan so'ng mo'g'ullar bosib olgan ko'plab hududlardan xalq qo'zg'olon ko'tarib mo'g'ul noiblarini o'ldirganlar.

Jaloliddin Manguberding Parvon jangidagi g'alabasi shu qadar xalqini xursand qilib, Vatani sarhadlarini mo'g'ullardan tozalashga bo'lgan ishonchini oshiradi. Xorazm xalqida qolaversa, qardosh xalqlarda Jaloliddin Manguberdiga nisbatan yuksak hurmat va ishonch paydo bo'ldi. Yer yuzida mo'g'ullarga qarshi tura oladigan kuchni, mo'g'ullar va musulmon dunyosi o'rtasidagi mustahkam istihkomni xalq Jaloliddin Manguberdi siymosida ko'rdi.

Jaloliddin Manguberdi qaysi janga kirmasin, qayerga bormasin ko'nglida bitta ezgu niyat bong urib turardi, mo'g'ullarga qarshi tura oladigan ulkan kuch to'plab, o'z Vatani ulardan ozod qilish edi. Afsuski, bu niyatiga erisha olmadi. Bunga bir qancha jiddiy sabablar bor edi. Ulardan biriga Parvon jangidagi qo'lga kiritilgan Shiki Xutuxu no'yonning oti sabab bo'ldi. Parvon jangidan so'ng qo'lga kiritilgan o'ljalarni bo'lish vaqtida sarkarda Amin Malik va Sayfuddin Ag'roq o'rtasida bahs paydo bo'ldi. Bitta ot uchun nizolashib Amir Malik Sayfuddin Ag'roqning yelkasiga qilichning orti bilan uradi. Biroq Jaloliddin Manguberdi ayb ish qilgani uchun o'z yaqinini jazolamaydi. Oqibatda bundan arazlagan A'zam Malik va Muzaffar Maliklarni ham o'zi bilan birga olib Sayfuddin Ag'roq Jaloliddin Manguberdi qo'shinini tark etadi⁴³.

Jaloliddin Manguberding ularni qaytarish yo'lidagi say-harakatlari behuda ketdi. Chingizxon bu vaziyatni sinchkovlik bilan kuzatib turdi va undan foydalanib qoldi. Ulkan qo'shin bilan kelayotgan Chingizxon ajralib chiqqan sarkardalarni alohida tor-mor etdi.

Sulton Jaloliddin Manguberding xalq mo'g'ullariga qarshi kurash ramzi, mo'g'ullar asoratiga tushgan xalqlarni ozod qilishga qodir birdan bir lashkarboshi deb bildilar. Sulton Jaloliddin Manguberding yagona maqsadi mo'g'ullarga qarshi qarshi tura oladigan yirik qo'shinni shakllantirib Turon zaminidan mo'g'ullarni haydab chiqarib Eron-u Turonni buyuk davlatga aylantirish edi. U ana shu maqsadlarini amalga oshirish uchun bitta yirik va harbiy siyosiy arbobda bo'lishi kerak bo'lgan iste'dodnigina emas balki, ko'pchilik tarixiy shaxslarda bo'lmagan favqulotda qobiliyatlarni ham safarbar etdi.

Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding jasoratiga nafaqat do'stlari, hattó ashshadiy dushmanlari ham tan berib, tahsinlar aytgani tarixga ko'plab bitilgan. Bu Jaloliddin Manguberding Sharq dunyosida tutgan o'rnini ochiq e'tirof etish edi. Haqiqatdan ham buyuk sarkarda hayotligi davrida mo'g'ullar O'rta Sharqni bosib ololmadilar. Bu voqea ancha keyin 1256- yilda yuz berdi. Jaloliddin Manguberdi o'n bir yil davoida mo'g'ullarni nafaqat O'rta Sharqga balki Sharqiy Yevropaga ham qo'ymadi.

⁴² Baxtiyor Abdug'afar "Sulton Jaloliddin Manguberdi" - "Yangi asr avlodi - Toshkent 2024- 310 - b

⁴³ Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy-"Sulton Jaloliddin Manguberdi"- "Ozbekiston"-Toshkent 2006-yil 106 bet

Darhaqiqat, buyuk sarkarda o'n bir yil mobaynida mo'g'ullarni musulmon dunyosiga yo'latmay turdi Ammo, musulmon hukumdorlari buni kech angladilar. Jaloliddin Manguberdini halokat chohiga tushurishgach, bu ishni mutlaqo harbiy-siyosiy xato bo'lganligini anglab yetdilar.

Endi Jaloliddin Manguberdini ham, uning o'rnini bosa oladigan sarkardani ham musulmon dunyosidan topib bo'lmas edi. Jaloliddin Manguberdi xoinlarcha bartaraf etilgach, mo'g'ullar islom mamlakatlarini birin -ketin bosib oldilar.

Jaloliddin Manguberdi o'z Vataniga, xalqiga bo'lgan muhabbati shu darajada kuchli ediki, u bir tomondan qonli jangdan, bir tomonda ulkan daryo sohilidan, ko'z o'ngida buyrug'i bilan cho'ktirilgan onasi, xotini va bolasining daryo tubiga shung'iganini ko'rsada o'zida qayta oyoqqa turishga kuch topa oladi.

Bu esa uning aqlan, jismonan va pisixologik jihatdan juda kuchli ekanligini ko'rsatadi. Jaloliddin Manguberdi ham Vatan el-yurt uchun xizmat qilgan tarixiy shaxslar singari buyuk siyosiy arbob sifatida tarixga kirdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Shihobiddin Muhammad an -Nasaviy- "Sulton Jaloliddin Manguberdi" - "O'zbekiston" - Toshkent 2006-yil 105-b
2. Alouddin Atomalik Juvayniy "Tarixiy jahongusha" - "Mumtoz so'z" - Toshkent 2015-370-b
3. Alouddin Atomalik Juvayniy "Tarixiy jahongusho" - "Mumtoz so'z" - Toshkent 2015-371 - b
4. Baxtiyor Abdug'afur "Sulton Jaloliddin Manguberdi - "Yangi asr avlodi" - Toshkent 2024-302 - b
5. Baxtiyor Abdug'afur "Sulton Jaloliddin Manguberdi" - "Yangi asr avlodi" - Toshkent 2024- 310 - b
6. Shihobiddin Muhammad an- Nasaviy - Sulton Jaloliddin Manguberdi" - "O'zbekiston" - Toshkent 2006-106 b